

Qo'mita raisi o'rinbosari – bosh muhandis tayinlandi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 10 apreldagi PQ-2877-sonli qaroriga binoan Obid Adilov O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi raisining o'rinbosari – bosh muhandis etib tayinlandi.

Obid Chorievich Adilov shu paytga qadar "O'zavtoyol" DAK boshqaruvi raisi o'rinbosari – bosh muhandis [lavozimida](#) ishlab kelgan.

Prezidentning 2014 yil 14 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi [qarori](#) bilan tasdiqlangan yangi qo'mitaning tashkiliy tuzilmasiga asosan, qo'mita raisi o'rinbosari – bosh muhandis: avtomobil yo'llarini saqlash va ularning texnik holatini tahlil qilish, yo'llarda tashilayotgan yuklarning og'irligi va hajmini nazorat qilish, avtomobil yo'llarining hisobi va ularning davlat kadastri, shuningdek, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash masalalariga rahbarlik qiladi.

Avtomobil yo'llari Davlat qo'mitasi

matbuot xizmati